

BYUDJET – SOLIQ VA INVESTITSIYA SIYOSATI HISOBIGA KORXONALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGI VA MOLİYAVIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH MASALALARI

Safarov G’iyosiddin Abdullayevich
Toshkent moliya instituti,
Iqtisodiyot fanlar nomzodi, dotsent,

Bahodirov Zokirjon Olimjon o’g’li
Toshkent moliya instituti,
“Iqtisodiyot” fakulteti “Iqtisodiy xavfsizlik” guruhi talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisdagi avvalo moliyaviy barqarorlik tushunchasi atroflicha yoritilgan hamda byudjet – soliq va investitsiya siyosati hisobiga korxonalar moliyaviy barqarorlikka erishish masalari bo’yicha chora – tadbirlar xususida so’z borgan.

KALIT SO’ZLAR: Moliyaviy barqarorlik, korxona moliyaviy barqarorligi, yalpi ichki mahsulot, iqtisodiy xavfsizlik, byudjet – soliq siyosati, fiskal siyosat, investitsion siyosat, soliq, davlat xarajatlari.

KIRISH

Korxonalarning moliyaviy barqarorligi korxonaning iqtisodiy xavfsizligi ta’minlanishida muhim ro’l o’ynaydi. Ya’ni korxona moliyaviy jihatdan barqaror bo’lishi uning iqtisodiy xavfsizligi ta’minlanishida muhim ko’rsatkichlar yoki indikatorlardan biri bo’lib hisoblanadi. Ushbu tezis bevosita korxona moliyaviy barqarorligi hamda uni ta’minlash masalalarini byudjet – soliq va investitsion siyosatlar yordamida amalga oshirilishi borasidagi chora – tadbirlar to’g’risidagi ma’lumotlarni o’z ichiga oladi. Korxona moliyaviy barqarorligiga ta’rif berishdan avval, *moliyaviy barqarorlik* atamasining mohiyatini yoritamiz.

Moliyaviy barqarorlik – bu moliyaviy tizimning, ya’ni moliya muassasalari, bozorlar va bozor infratuzilmalarining ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, shu bilan birga moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyatidir. Moliyaviy barqarorlik maqsadi alohida moliya muassasasi emas, balki butun moliya tizimi barqarorligini ta’minlashdan iborat. Moliyaviy barqarorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanish asosi hisoblanadi.

Demak, yuqorida keltirib o’tilgan ta’rifdan kelib chiqqan holda, *Korxona moliyaviy barqarorligi* – bu korxonaning ehtimoliy shoklar va nomutanosibliklarga bardosh bera olishi, moliyaviy vositachilik funksiyalarini bajara olmaslik ehtimolini pasaytirish qobiliyati tushuniladi.

Byudjet – soliq va investitsion siyosat hisobiga korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalari

Byudjet – soliq siyosati ba'zi adabiyotlarda fiskal siyosat deb ham yuritiladi. Uning mazmun – mohiyati shundan iboratki, Byudjet – soliq siyosati

– noinflyatsion YAIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to'liq bandlikni, to'lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarni o'zgartirishni o'z ichiga olgan chora – tadbirlar majmuidir.

Davlatning byudjet – soliq siyosatining asosini quyidagilar tashkil etadi:

Soliqlarni kamaytirish va davlat xarajatlarini ko'paytirish yalpi talabni oshiradi va shuning uchun, mamlakat hududida ishlab chiqarish hajmining oshishiga, aholi qatlamlari daromadlarning ko'payishiga, mamlakatda ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi va aksincha. Soliqlarning ko'payishi va davlat xarajatlarining kamayishi, yalpi talab, korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi, aholidagi daromadlar hamda bandlikni ham pasayishiga sabab bo'ladi.

Fiskal siyosat mahsulot bozorlari orqali milliy iqtisodiyotga ta'sir qiladi. Davlat xarajatlari iste'mol va investitsiyaga sarflanadigan xarajatlarga qo'shib, umumiy talab hajmini oshiradi. Davlat xarajatlarining korxonalarda ishlab chiqarish faoliyatiga ta'siri hajmi va yo'nalishi bo'yicha investitsiya bilan bir xil. Davlat xaridlari hajmini oshirish orqali hukumat milliy iqtisodiyotga inyeksiyaning amalga oshiradi.

Soliqlarga kelsak, davlat xarajatlaridan farqli o'laroq, ular iste'mol va jamg'armalarni kamaytiradi. Binobarin, davlat xarajatlari va soliqlarning milliy ishlab chiqarish qiymati va daromadiga ta'sir yo'nalishi aynan teskari hisoblanadi.

Endi esa, korxona moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha investitsion siyosatning ahamiyati xususida to'xtalamiz.

Korxonalar xo'jalik yuritish va ishlab chiqarish faoliyatining muhim jihatlaridan biri ishlab chiqarish va iqtisodiy salohiyatni rivojlantirish va saqlab qolishdir. Korxonalarining bu yo'nalishdagi siyosati investitsiya siyosati deb ataladi hamda “Investitsion faoliyat to'g'risida” gi qonun va boshqa huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Investitsiyalar – korxonalar va xalq xo'jaligi miqyosidagi yangi ishlab chiqarish korxonalari yaratish yoki mavjud korxonalarni zamonaviylashtirish, ilg'or texnika va texnologiyalarni o'zlashtirish, mahsulot ishlab chiqarish va daromad olishni ko'apaytirish maqsadida uzoq muddatli sarmoya mablag'larini kiritishdir. Investitsiyalar ijtimoiy ishlab chiqarish tuzilmasini yaxshilash, ishlab chiqarishdagi disproporsionalliklarni bartaraf etish, moliyaviy barqarorlikka erishish va iste'mol bozorini ta'minlashda alohida e'tiborga ega.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mamlakat hududida joylashgan korxonalarga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, ya'ni ularni yuqori sifatli xorijiy texnika va texnologiyalar, asbob uskunalar bilan ta'minlash orqali biz korxonalarga investitsiya kiritgan hisoblanamiz. Keyinchalik oradan uzoq vaqt o'tmay, ushbu korxonalarga qo'llaniladigan investitsion siyosat o'z samarasini beradi.

Byudjet – soliq siyosati orqali soliqlarni kamaytirish va

davlat xarajatlarini ko'paytirish yalpi talabni oshiradi va shuning uchun, mamlakat hududida ishlab chiqarish hajmining oshishiga, aholi qatlamlari daromadlarning ko'payishiga, mamlakatda ishsizlik darajasining pasayishiga olib keladi va shu bilan birga korxonalar moliyaviy barqarorlikka erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. <https://cbu.uz/uz/financial-stability/about/> “Moliyaviy barqarorlik”
2. <https://fayllar.org/byudjet-soliq-siyosati.html> “Byudjet - soliq siyosati”
3. <https://fayllar.org/mavzu-ozbekiston-respublikasida-byutjet-soliq-va-pul-kredit-s.html?page=4> “Byudjet – soliq siyosatining mohiyati va usullari”
4. <https://fayllar.org/korxonaning-investitsion-faoliyati.html> “Korxonaning investitsion faoliyati”